

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023. Ped.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ISMATOVA NIGINA BAXODIROVNA

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK SIKL FANLAR
INTEGRATSIYASI VOSITASIDA KASBGA QIZIQISHINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Pedagogical Sciences**

Ismatova Nigina Baxodirovna

Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirish texnologiyasining nazariy asoslari.....3

Исмадова Нигина Баходировна

Теоретические основы технологии развития интереса будущих учителей к профессии путем интеграции педагогического цикла наук.....23

Ismatova Nigina Bakhodirovna

Theoretical foundations of technology for developing the interest of future teachers in the profession through the integration of the pedagogical cycle of sciences.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....49

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023. Ped.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ISMATOVA NIGINA BAXODIROVNA

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK SIKL FANLAR
INTEGRATSIYASI VOSITASIDA KASBGA QIZIQISHINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.Phd/Ped4754 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Olimov Shirinboy Sharofovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xodjamqulov Umidjon Ne'matovich
pedagogika fanlari doktori, professor
Asqarov Abror Davlatmirzayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent


Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "05" 12 kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy, (99871) 202-01-20, e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (7 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy, (99871) 202-01-20, e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "15" 11 kuni tarqatildi.
(2024 yil "15" 11 dagi 7 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

A.S.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
PhD., dotsent

Ya.U.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularning dunyoqarashi va kasbga qiziqishini shakllantirib borish masalasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti garovi hisoblanadi. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashga oid tadqiqotlar olib borilayotgan Max Plank Institute, Harvard Law School, European University Institute, European Integration (ECSA-Austria), ARENA (Oslo), Mannheim Centre for European Social Research kabi nufuzli ta'lim markazlarida pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining ijtimoiy ahamiyatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi tizimini isloh qilish va ularni ta'lim muassasasida tayyorlashga qo'yiladigan talablarning ortishi bilan bog'liq salmoqli amaliy natijalarga erishish uchun o'ziga xos ta'lim kampusi yaratilmoqda.

Dunyo tajribasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorlash jarayonini takomillashtirish muammolari, xalqaro ta'lim standarti talablarining joriy qilinishiga, o'z kasbining yetuk mutaxassisi, ilg'or, innovator shaxslarning yetishib chiqishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xorijiy tadqiqotlarda o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish metodikalarini ishlab chiqish, ta'lim dasturlarini "Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi" darajalari bilan uyg'unlashtirish, ta'limning innovatsion metodik modellarini yaratish va ular muayyan ta'lim amaliyotiga joriy etish borasidagi ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimiz yosh avlodni kasbga yo'naltirish, ularni kasbga qiziqish jarayonining samaradorligini aniqlashning muhim mezoni bo'lajak o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan kasbiy bilimlar shaxs sifatiga qo'yiladigan malaka talablari mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanishi nazarda tutilmoqda. "... butun ta'lim tizimining eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta bilim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir"¹. Ushbu fazifadan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbga qiziqishini rivojlantirish jarayonida ta'lim muhitiga moslashish ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar tahlil qilinganda, ularning ilmiy-nazariy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va amaliyotga to'liq tatbiq etilmaganligini guvohi bo'ldik. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirishning shakl, metod va vositalarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni yo'lga qo'yish lozimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, 2021-yil 1-apreldagi "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5047-son, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T., 2017. – 145 b.

oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-son Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ilmiy ish O'zbekiston fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbga qiziqishini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, kasbiy faoliyatga tayyorlash, o'qitish metodikasini takomillashtirish muammolari bo'yicha respublikamiz olimlaridan R.X.Djurayev, O.A.Abduquddusov, N.Saidahmedov, U.N.Nishonaliyev, N.Sh.Shodiyev, D.B.Maxmudova, P.T.Magzumov, N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinov, O'Q.Tolipov, R.M.Sarsenboyeva, S.Axmadaliyev, B.Doniyev, A.I.Avazboyev, A.Parmonov, F.S.To'rabekov, A.R.Jo'rayev, Z.U.Djumagulov, M.M.Yusupov, M.M.Qodirov, R.A.Abduxairov, M.T.Mirsoliyeva, B.X.Xodjayev, Y.U.Ismadiyarov, A.S.Djurayev, N.T.Orinbetov, Z.D.Rasulova, L.R.Zaripov, B.E.Qodirovlar hamda o'quv jarayonini amalga oshirish va o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha MDH davlatlari olimlaridan S.I.Arhangelskiy, V.P.Bespalko, N.M.Boritko, A.M.Novikov, V.A.Yakunin kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida bo'lajak mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy faoliyati va mahoratini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari masalalari pedagogik muammo sifatida tadqiq qilingan.

Pedagogik hodisalarni tizimli tahlil qilish pozitsiyalari va g'oyalari xorijiy olimlardan B.Vulfov, V.V.Kraevskiy, N.V.Kuzmina, M.S.Kagan, M.N.Skatkin, E.G. Yudin, V.Yalkunin va boshqalar, o'quvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan kasbiy pedagogikaning nazariy qoidalari S.L.Batyshev, N.S.Gluxanyuk, N.M.Jukova, V.L.Kosyrev, A.T.Malenko, A.Ya.Nain, E.V. Romanov, L.F. Spirin va boshqalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning kontseptual g'oyalari E.V.Bondarevskaya, G.I. Jelezovskaya, V.Serikov, N.K.Sergeev, I.S. Yakimanskaya, faol o'qitishni rivojlantirish sohasidagi tadqiqotlar, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish usullarini A.A.Verbitskiy, V.N. Kruglikov, I.L.Lerner va boshqalar nazariy jihatdan tadqiq qilganlar.

Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha yuqorida keltirib o'tilgan mualliflarning ilmiy-tadqiqot ishlarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda sifat va samaradorlikni oshirish, fanlar

integratsiyasi asosida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan, lekin bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan hamda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "O'quvchilarning o'quv-biluv imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan vaziyatlarni loyihalash mexanizmlari" (2019-2022 yy) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirish texnologiyasining nazariy asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirish tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari hamda innovatsion yondashuvlardan foydalanishni aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni kasbga qiziqishini pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida rivojlantirish modelini takomillashtirish;

pedagogik turkum fanlarining imkoniyatlarini aniqlash orqali integratsiyalashgan didaktik vositalarni ishlab chiqish asosida innovatsion ta'limni tashkil etish shakllarini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi orqali o'qitish samaradorligini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyat turlarini rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Buxoro, Qarshi davlat universitetlari va Jizzax davlat pedagogika universitetidan 525 nafar talabalar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan adabiyotlar tahlili, kuzatuv, so'rovnoma, test, suhbat, pedagogik eksperiment, umumlashtirish, qiyoslash, matematik-statistik ishlov berish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirishda o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, shaffof ta'lim, talabalarning harakatchanligini yaxshilash kabi tamoyillardan foydalanishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari motivatsion, kreativ, evristik yondashuvlardan foydalanish orqali aniqlashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni kasbga qiziqishini pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida rivojlantirish modelining maqsad, tashkiliy, mazmun, natija komponentlari xalqaro tajribalarni tatbiq qilish asosida takomillashtirilgan;

pedagogik turkum fanlarining imkoniyatlarini aniqlash orqali integratsiyalashgan didaktik vositalar, animatsiyalar, virtual stend va ta'lim trenajorlardan foydalanish hamda innovatsion ta'limni tashkil etish shakllari mazmunan takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi asosida kasbga qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv, pedagogik faoliyatni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirishda pedagogik turkum fanlari o'quv dasturlarining mazmunini qamrab olgan "Методология педагогических исследований" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

"Pedagogika nazariyasi va tarixi" fanini ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarini o'qitish metodikasini rivojlantirishga qaratilgan "O'ringni aniqla", "Pedagogik qarorlar daraxti" va "Ta'lim strategiyasi" kabi interfaol ta'lim metodlari ishlab chiqilgan;

"Oila pedagogikasi" fanini o'qitishda didaktik animatsiyalar, virtual stend va ta'lim trenajorlari, taqdimotlar, nostandart testlarni qamrab olgan "Oila pedagogikasi" nomli elektron darslik asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbga qiziqishini baholash imkonini beruvchi mezonlar sifatida foydalanilgan hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, metodlar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari tahlili yordamida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan model, ishlab chiqilgan didaktik vositalari oliy ta'lim muassasalari "Pedagogika va psixologiya" ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini tizimli yondashuv asosida tashkil etish, o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish, ta'limni rivojlantirishda qo'llanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlash, o'quv mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini ishlab chiqish, pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida innovatsion usulda mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan esa o'quv reja va dasturlar hamda malaka talablarini takomillashtirish, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish va oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirishda o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, shaffof ta'lim, talabalarning harakatchanligini yaxshilash kabi tamoyillardan foydalanishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari motivatsion, kreativ, evristik yondashuvlardan foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar 5110900-Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi malaka talabi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2023 yil, 29-sentyabrdagi 02/01-01-134-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning kasbga qiziqishini rivojlantirish va ularning pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajalari belgilangan;

bo'lajak o'qituvchilarni kasbga qiziqishini pedagogik fanlar integratsiyasi vositasida rivojlantirish modelining maqsad, tashkiliy, mazmun, natija komponentlari xalqaro tajribalarni tatbiq qilishga oid tavsiyalari va ilmiy natijalaridan 2021-yilda bajarilgan PZ-202005236 "Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotlarini yaratish" nomli innovatsion loyiha doirasida belgilangan asosiy vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 1-mart 2024-yildagi 01-04/1016-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarning kasbga qiziqishni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va ijtimoiy zarurati aniqlashtirilib, metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirishning nazariy imkoniyatlari kengaytirilgan;

pedagogik turkum fanlarining imkoniyatlarini aniqlash orqali integratsiyalashgan didaktik vositalar: animatsiyalar, virtual stend va ta'lim trenajorlaridan foydalanish hamda innovatsion ta'limni tashkil etishga oid taklif va tavsiyalar "Методология педагогических исследований" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil, 01-martdagi 110-sonli buyrug'i, 110-051-sonli guvohnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni kasbga qiziqishini pedagogik fanlar integratsiyasi vositasi orqali rivojlantirish reallik qonuniyatlariga asosan takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi orqali o'qitish samaradorligining imkoniyatlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv, pedagogik faoliyat turlarini rivojlantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar "Методика воспитательной работы" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil, 02-avgustdagi 257-sonli buyrug'i, 257-087-sonli guvohnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbga qiziqishi, pedagogik faoliyat kompetentligi rivojlantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 23 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'i asosida 2 ta o'quv qo'llanma, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 2 tasi xorijiy jurnallarda 4 tasi respublika jurnallarida 1 ta monografiya nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishini rivojlantirishning zaruriyati izohlanib, integratsiya - tushunchasi, mazmuni va mohiyati hamda bo'lajak o'qituvchilarni kasbga qiziqishini rivojlantirish muammosining – Sharq mutafakkirlari ijodida ifodalanishi kabi masalalar bayon qilingan.

Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy-pedagogik ta'lim uzviyligi hamda uzluksizligi, pedagogik-psixologik fanlar va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlash kabi o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar mavjud bo'lib, bugungi uzluksiz ta'lim talablaridan kelib chiqadi. Mazkur masalalar yuzasidan yig'ilgan fikr-mulohazalarga ilmiy-amaliy asoslangan aniqliklar kiritish hamda kasbiy-pedagogik va texnik ta'lim integratsiyasini ta'minlashni amalga oshirish fursati yetib keldi. Integratsiyalash asoslariga ta'sir etuvchi bir qancha quyidagi asosiy omillar mavjud: fanlar rivojlanishining obyektiv qonuniyatlari; ilm-fan taraqqiyotini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini belgilash; davlat ta'lim standartlari va malaka talablari; ta'lim vazifalari; bilimlar sintezi; ta'lim jarayoni va mazmuni birligi; o'quv reja va dasturlarining bir-birini o'zaro belgilashi; moddiy texnik baza; innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari.

Integratsiya fanlar va ularning tarmoqlarini tabaqalanishi, bilimlar hajmining ortib borishi va zamonaviy fanlarda unga qo'yiladigan talablar bilan dialektik qarama-qarshilik fonida vujudga keldi. Fanlarning tabaqalanish jarayonining chuqurlashishi qarama-qarshi natijalarga olib keladigan sabablardan biridir. Integratsiya konsepsiyasi fundamental fanlar sohasida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi vaqtda u dolzarb masala hisoblanadi, chunki u nafaqat fanda, balki umuman pedagogik jarayonlarni tavsiflaydi.

“Integratsiya” kategoriyasini tahlil qilar ekanmiz, terminologik usullarga murojaat qilishni va “integratsiya” tushunchasining ma'nosini izohlash nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni zarur deb hisoblaymiz, chunki ta'lim olishda “Integratsiya” so'zining ma'nosi muhim tarkibiy qismga ega. Bu tushuncha lotincha *integratio* – “yaxlit”, “to'ldirish” so'zidan kelib chiqqan, jumladan integratsiyani aniqlashning asosiy tamoyillari dialektikaning qismlar va

munosabatlari haqidagi qonunlari, yaxlitlikni shunday tushunish mumkin, bu oddiy qismlar yig'indisiga kamaytirilmaydi, lekin qismlarning o'zaro ta'siri sifatida tushuniladi.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida "integratsiya" atamasi lotin tilida "innegration" – tiklash, to'ldirish, "integer" – butun degan ma'nolarni anglatishi izohlanadi. U quyidagicha tavsiflanadi: 1. Sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha. 2. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni differentsiatsiya bilan birga kechadi. 3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish"² kabi ma'nolarda qo'llaniladi.

"Falsafa" qomusiy lug'atida integratsiyalash jarayoni rivojlanish jarayonining bir qismidir, ilgari o'xshash bo'lmagan qismlar va elementlarning birlashishi bilan bog'liq"³.

Integratsiyalashgan dars - bir tushuncha, mavzu yoki hodisani o'rganish bilan bir qatorda bir vaqtning o'zida bir nechta fanlar bo'yicha o'qitishni birlashtiradigan maxsus dars turi hisoblanadi. Zamonaviy oliy ta'lim muassasasida integratsiya bir necha yo'nalishda (vertikal va gorizontal, parallel, ketma-ket) va turli darajalarda boradi. Pedagogik adabiyotlarni o'rganish jarayonida fanlararo integratsiyaning quyidagi tasniflari mavjudligining guvohi bo'lamiz:

1. Mavzu ichidagi - tushunchalar, bilimlar, ko'nikmalarni alohida o'quv predmeti doirasida birlashtirish. Bunda:

a) vertikal integratsiya - mazmun asta-sekin yangi ma'lumotlar, bog'lanishlar va bog'liqliklar bilan boyib boradi. Muammo bo'yicha bilim doirasini kengaytiradi va chuqurlashtiradi;

b) gorizontal integratsiya - mavzu mazmunini kengaytirish, o'zaro bog'liq tushunchalar guruhini birlashtirish orqali quriladi, katta axborot o'zlashtirish birligi doirasida mavjud bo'lgan bir elementdan ikkinchisiga o'tish orqali tushuniladi.

2. Fanlararo - ikki yoki undan ortiq fanlarning faktlari, tushunchalari, tamoyillari va boshqalarning sintezi:

a) gorizontal integratsiya;

b) ketma-ket integratsiya. Mavzu mazmuni birligi sifatida qabul qilinadi, u boshqa o'quv fanlari mavzulari bilan bog'liq bo'lishi mumkin, boshqa fanlarning materiallari vaqti-vaqti bilan kiritiladi; har bir fanning mustaqilligi, uning maqsadi, vazifalari, dasturi saqlanadi; mavzu faqat dastur o'quv material bo'yicha ham, boshqa fandan materialni kiritish bilan ham ko'rib chiqilishi mumkin;

v) parallel integratsiya. Predmet tahlili ko'p qirrali obyektlar bo'lib, ularning mohiyati haqidagi ma'lumotlar turli o'quv fanlarida mavjud. Har bir fanning mustaqilligi saqlanib qoladi. Barcha analizatorlar (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish) ta'limning mustahkamligini ta'minlaydigan bilish jarayoniga kiradi;

² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Tom 5, 2000. - 179 b.

³ Falsafa: Qomusiy lug'at (tuzuvchi va ma'sul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 220 b.

g) vertikal integratsiya: berilgan mavzu, o'ziga xos mazmun, tasvir va boshqalar bo'yicha dialogni tashkil qilish uchun bir nechta fanlarni birlashtirish, ular asosiy ibora sifatida, masalan, bir hafta davomida, turli xil miqdorda bir nechta darslarda o'tiladi;

d) aralash tipdagi integratsiya: darsda ketma-ket va parallel integratsiya bog'lanishlaridan foydalangan holda tashkil etiladi.

Ta'lim muassasalarining muvaffaqiyati birinchi navbatda o'qituvchiga bog'liq. Uning shaxsiy fazilatlari, pedagogik mahorati, axloqiy va intellektual boyligi, pedagogik muammolarni hal qilishda ijodiy izlanishlarga intilishi ko'p jihatdan jamiyatning ijtimoiy kamoloti, axloqiy salomatligi va ma'naviy boyligini oldindan belgilab beradi. Pedagog tayyorgarligi har qachongidan ham ko'proq har bir professional o'qituvchida shaxsiyatni shakllantirishni talab qiladi. Bu uzoq va qiyin jarayon. Lekin uning poydevori pedagogik oliy ta'lim muassasalarida qo'yiladi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qiziqishni tarbiyalash dolzarbligini ko'rsatadi. Chunki birinchidan, kasbiy va pedagogik faoliyatning shakllanish darajasi fundamental ahamiyatga ega. Bu esa pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining ijtimoiy ahamiyatini oshishi, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi tizimini isloh qilish va ularni oliy ta'lim muassasasida tayyorlashga qo'yiladigan talablarning ortishi bilan bog'liq. Ikkinchidan, zamonaviy ta'lim sharoitlarida pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini biladigan, ta'lim maqsadlariga erishishning u yoki bu usullarining samaradorligini belgilaydigan sabab-oqibat munosabatlarining umumiy qonuniyatlarini tushunadigan o'qituvchining faol ijodiy shaxsining roli o'sib bormoqda. Uchinchidan, o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasining roli, uning kasbiy bilim darajasi, tajribasi va individual qobiliyatlari, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan intilishi, mehnatga ijodiy va mas'uliyatli munosabatining oshib borishi. To'rtinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini ishlab chiqish zaruratining oshib borayotganligi bilan belgilanadi.

O'qituvchilik kasbga qiziqishning rivojlanishi kasbga muhabbat - kasbga moyillik - kasbga qiziqish harakat darajalari sifatida ifodalash mumkinligi aniqlandi.

Bo'lajak mutaxassislarda qiziqishni rivojlantirishda pedagogik yo'nalishdagi har bir fan muhim, alohida o'rin tutadi. Shu sababli, ushbu fanlarni o'qitishda integratsiya va uzluksizlikni ta'minlash muhim hisoblanadi. Chunki pedagogik yo'nalishdagi fanlar integratsiyasi talabning kasbga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan bir qatorda ijtimoiy merosga bo'lgan ehtiyojini qondirish (oldingi avlodlar tajribasini o'rganish) zaruratini ham ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari”** nomli ikkinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishlarini rivojlantirish mazmuni, tamoyillari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarda kasbga qiziqishni rivojlantirishning shakl, metod va vositalari yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori va oliy ta'limni rivojlantirishning strategik rejalarini ishlab chiqishda mutaxassislarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini va faoliyat talablariga moslasha olish qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu, o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirish samaradorligini oshirish bilan bog'liq quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

pedagogik yo'nalishda mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha zamonaviy talablar va mehnat bozori takliflaridan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbga qiziqishi mazmunini aniqlash;

kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni sifatli egallash uchun innovatsion salohiyatni shakllantiruvchi pedagogik-psixologik omillar va shart-sharoitlarni aniqlash;

tizimli yondashuv asosida ijodiy va jamoaviy muhitga asoslangan kasbga qiziqishning pedagogik shartlarini aniqlash va amalga oshirish;

ijtimoiy-pedagogik jihatlarni, nazariy masalalarni mustaqil o'rganish va bo'lajak o'qituvchilarni mustaqil tayyorlash uchun yangi nashrlar, elektron darsliklar, o'quv materiallarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar jarayonida olingan kuzatishlar va empirik tahlil natijalarini nazariy tahlil qilish va umumlashtirish natijasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbga qiziqishini rivojlantirish quyidagi omillarga asoslanishi aniqlandi:

motivatsion omil – bo'lajak o'qituvchilarning tanlagan kasbi va uning mohiyati, kasbga yo'naltirilganligi va kasb tanlash motivlari to'g'risidagi xabardorlik darajasini tavsiflovchi jihatlari;

ijtimoiy omil – jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muhit va kasbning ijtimoiy nufuzi, shuningdek, talabalar tomonidan kasbiy va ijtimoiy normalarni ishlab chiqish, shaxsiy va kasbiy sifatlar va ijtimoiy tajribani muassasalar tizimida qo'llash;

axborot-mazmun – tanlagan kasbiy faoliyat sohasini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-nazariy, pedagogik-psixologik va maxsus uslubiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuini rivojlantirish;

faoliyat omili - olingan maxsus kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash uchun motivatsiya, o'ziga xos vaziyatlarda introspektsiya va rivojlanishni ta'minlash;

tashkiliy-metodik omil – ta'limning innovatsion turlari: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, hamkorlikda o'qitish, dasturiy ta'minot, muammoli ta'lim, o'yin texnologiyalari, modulli ta'lim, ta'lim jarayonida mustaqil ta'limdan samarali foydalanish va boshqalar; o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlar; talabalarning mustaqil bilim olish qobiliyati, talabalarning bilim olishga ijodiy yondashishlari, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish; axborotli ijodiy muhitni yaratish; sog'lom raqobat; talabalarning o'quv faoliyatini xolisona baholash;

didaktik omil – maxsus jihozlangan (kompyuterlashtirilgan) o'quv xonalarining mavjudligi; ta'lim resurslari (takomillashtirilgan o'quv dasturlari, ma'ruza matnlari, elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalari, elektron ishlanmalar,

grafik organayzerlar, audio-video vositalari, tarqatma materiallar), o'quv jihozlari va vositalari, axborot texnologiyalari.

Kasbga qiziqish bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni tavsiflashda, kasbiy bilimlarning mazmuni ularning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablaridan kelib chiqqan holda quyidagi jihatlar bilan bog'liq holda belgilanishiga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

nazariy - o'quv jarayonining maqsadi, tamoyillari, qonuniyatlari, ta'limotlari, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari, usullari va vositalarini bilish;

uslubiy - o'quv jarayonini loyihalash, rejalashtirish va tanlash, shakllar, usullar va didaktik o'qitish vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning o'quv motivatsiyasini shakllantirish bilan bog'liq bilimlar;

pedagogik muammolarni hal qilish, texnologik jihatdan aniq ta'lim muhitidagi vaziyatlar, rejalashtirilgan o'quv jarayonini samarali amalga oshirish bilan bog'liq bilimlar;

prognostik - talaba shaxsi rivojlanishini bashorat qilish, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatli shaxs kamolotiga ta'sir qilish yo'llarini bashorat qilish qobiliyati bilan bog'liq bilimlar;

ijodiy va innovatsion pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, ta'lim va tarbiyaning yangi shakl, usul va vositalarini yaratish bilan bog'liq amaliy bilimlar.

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik sikl fanlar integratsiyasi vositasida kasbga qiziqishlarini rivojlantirish samaradorligini oshiradigan quyidagi pedagogik shartlarni belgilash mumkin:

bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish hamda talabalarning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillarini joriy qilish;

talabalarning kasbiy faoliyatini faollashtirish;

o'quv jarayonini tashkil etishda hamkorlik pedagogikasidan foydalanish;

o'qitish mazmunini ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari asosida tuzish.

Hozirgi bosqichda u yoki bu sohadagi integrativ pedagogik faoliyatning yo'nalishi va mazmunini belgilovchi tizimlashtirilgan qarashlar, qoidalar va g'oyalar majmuasi sifatida integratsiyalashgan pedagogik tushunchalarning paydo bo'lishida o'z ifodasini topgan integratsiya masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Ta'lim tizimi umumiy asoslar va tamoyillarga asoslanib, o'quv dasturlari va ta'lim faoliyatini qayta qurish va optimallashtirish orqali mamlakatning munosib va bilimli fuqarolarini yetishtirishi mumkin.

Integratsiyalashgan o'qitish usuli o'quv dasturi mazmunini o'quv materialining semantik mazmuni va tabiiy hayot bilan bog'lash va birlashtirishni, talabalar bilimining birdamligi va barqarorligini ifodalaydi. Ushbu o'qitish usulida talabalar o'zlarini murakkab real dunyo muammolari bilan birlashgan holda topadilar. Integratsiyalashgan ta'limda asosiy e'tibor quyidagi jihatlarga qaratiladi:

1) Talaba shaxsini umumiy tarbiyalashga ahamiyat berish.

2) Mutaxassislik fanlaridan tegishli adabiyotlarni to'plash orqali talabalar uchun boy o'quv muhitini yaratish.

3) Takomillashgan o‘quv dasturini tayyorlash, barcha darsliklar mazmunidagi bir mavzuga oid barcha materiallarni birlashtirish asosida amalga oshirilish.

4) Ilmiy tajribalar uchun yetarli joyni ta’minlash.

5) O‘qituvchi tomonidan dars mavzusi va unga oid materiallar taqdimotini ishlab chiqish.

6) Individual o‘rganish o‘rniga guruh faoliyatida raqobat va hamkorlikni rag‘batlantirish.

7) Dars mavzusiga oid ilmiy-tadqiqot mavzularni taklif qilish.

8) Guruhda ishlashda pozitsiyaga e’tibor qaratgan holda hamkorlikda o‘rganish modellaridan foydalanish.

Pedagogik adabiyotlarda integratsiya ta’limning maqsadi va vositasi sifatida ham ko‘rib chiqilgan. “Integratsiya” tushunchasi ma’nosini aniqlashda turli xil yondashuvlarning nazariy tahlili mavjud va pedagogik sikl fanlar integratsiyasining quyidagi bosqichlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: (1-jadvalga qarang).

Pedagogik sikl fanlar integratsiyasi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

talaba dunyoqarashini rivojlantirishga, unga barcha voqea-hodisalarni chuqur o‘zaro bog‘liqligi va shu bilan birga, nomuvofiqlikda ko‘rishga o‘rgatish imkonini beradi;

talaba shaxsini tezda modellashtiradi, sog‘lom munosabatga turtki bo‘lib xizmat qiladi;

pedagogik sikl fanlar uchun umumiy bo‘lgan kognitiv, amaliy va baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi, ular asosida to‘g‘ri baholarni hosil qiladi;

talabaning hayotida dialektik qarashning umumlashtirilgan bilim va ko‘nikmalari hosil bo‘ladi. Talabaning axloqiy qadriyatlar yo‘nalishlari uchun asos yaratuvchi axloqiy va estetik ideallar tizimi shakllanadi.

Pedagogika ta’lim yo‘nalishida talabalarning kasbga qiziqishini shakllantirishda zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llash samaradorligini oshiradigan quyidagi pedagogik shartlarni belgilash mumkin:

kasbga qiziqishga oid bilimlarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirish hamda talabalarning kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirish;

pedagogik sikl fanlarini o‘qitishda integrativ tamoyillarini ro‘yxatdan o‘tkazish;

talabalarning fanlararo aloqaga kirisha olish faoliyatini jadallashtirish;

pedagogik sikl fanlarini o‘qitish jarayonini tashkil etishda sinergetik tamoyilni ustun qo‘yish.

Tadqiqot jarayonida bir nechta interfaol metodlardan foydalanildi va tahlil qilindi. Jumladan:

Pedagogik-psixologik trening - bu ketma-ket topshiriqlar, harakatlar yoki o‘yinlarni bajarish orqali kasbga qiziqish sohasida ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish metodi hisoblanadi. Bu metod o‘qituvchiga talabalarga yetishmayotgan ma’lumotlarni berish imkonini beradi va ularda kasbiy vazifalarni bajarishda kasbiy va munosib xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Ushbu ta’lim metodining afzalligi shundaki, u barcha talabalarni o‘qitish jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi.

Pedagogik sikl fanlar integratsiyasining bosqichlari

Bosqich maqsadlari	Tarkib	Usullari
1. Tayyorgarlik bosqichi		
Talabalarni yangi ta'lim sharoitlariga moslashtirish. O'quv va kasbiy faoliyatni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish. Kelajakdagi kasb-hunar va shaxsiy rivojlanish kontekstida o'rganilayotgan materialga qiziqishni uyg'otish.	Ta'lim va kasbiy faoliyatning psixologik va pedagogik asoslari, ushbu fanning kasbiy rivojlanish, keyingi ta'lim va shaxsiy o'sish kontekstidagi ahamiyati.	Axborot usullari: tushuntirish va illyustrativ, ko'rsatma, professional vaziyatlarni tahlil qilish algoritmini namoyish qilish.
2. Reproduktiv bosqich		
Ta'lim va kasbiy faoliyatni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni barqarorlashtirish. O'rganilayotgan fanga va umuman kasbga qiziqishni saqlab qolish. Ta'lim va kasbiy faoliyatda maqsadni belgilash operatsiyalarini birlashtirish va tizimlashtirish. To'liq huquqli kognitiv, kasbiy va shaxsiy motivlarni shakllantirish.	Ta'lim va kasbiy faoliyatni o'zlashtirishga bo'lgan ishonchni mustahkamlash. O'rganilayotgan fanga va umuman kasbga qiziqishni saqlab qolish. Ta'lim va kasbiy faoliyatda maqsadni amalga oshirishni birlashtirish va tizimlashtirish. To'liq huquqli kognitiv, kasbiy va shaxsiy motivlarni kuzatish.	Axborot usullari: tushuntirish va illyustrativ, ko'rsatma, professional vaziyatlarni tahlil qilish algoritmini avtomatlashtirish. Amaliy usullar: model bo'yicha professional vaziyatlarni tahlil qilish, algoritimga muvofiq moddiy va shaxsiy rivojlanishni o'rganish maqsadlarini belgilash bo'yicha mashq.
3. Amaliy bosqichi		
Bilim olish, kasb-hunar egallash va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini faollashtirish. Ta'lim va kasbiy faoliyatning qiziqish doirasini kengaytirish. Maqsadni belgilashni rag'batlantirish. O'quv va kasbiy faoliyat motivlari haqida tushunchani shakllantirish.	Mutaxassisning kasbiy funktsiyalarini ochib beruvchi material, kasbiy vaziyatlar, kasbiy xatolar misollari.	Axborot usullari: tushuntirish va illyustrativ, ko'rsatma, professional vaziyatlarni tahlil qilish algoritmini namoyish qilish. Interfaol ta'lim usullari: munozara, davra suhbat, o'zaro ta'lim. Muammoli ta'lim usullari.
4. Ijodiy bosqich		
